

OLDI-SOTDI SHARTNOMASI

(Veb kamera olish bo'yicha)

Keyingi o'rinlarda "Sotuvchi" deb ataladigan "Xorazm-Mebel-Invest" MCHJ kompaniyasi nomidan R.Xudoyberganov orqali bir tomondan, keyingi o'rinlarda "Sotib oluvchi" Hazorasp tuman maktabgacha ta'lim bo'limi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi rahbari H. Abdirasulova deb ataladigan ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Shartnomada tovar deb nomlanuvchi "Xorazm-Mebel-Invest MCHJ" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan o'nta "Hi look" veb kamerasi ikkala taraf o'rtasida tuzilayotgan shartnomaning predmeti hisoblanadi.

1.2. Tovarning kafolat muddati 3 (uch) yil. Kafolat muddati tovar sotib oluvchiga topshirilgan paytdan, tovar almashtirilganda esa yangidan o'ta boshlaydi.

1.3. Har bir veb kameraning narxi 1.000.000 (bir million so'm). Tovar haqi shartnoma tuzilgan paytda to'lanishi lozim. Jami 10 000 000 (o'n million) so'm.

1.4. Agar tovardan foydalanilmagan, uning iste'mol xususiyatlari saqlangan bo'lsa va sotuvchidan sotib olinganining isboti bo'lsa, sotib oluvchining tovarni almashtirish yoki qaytarib olish haqidagi talabi qanoatlantiriladi.

1.5. Sotib oluvchi o'ziga tovar topshirilgan paytdan boshlab o'n kun mobaynida xarid qilingan tegishli sifatli tovarni xarid joyida o'lchami, shakli, hajmi, andozasi, rangi, to'plami boshqacha bo'lgan xuddi shunday tovarga almashtirishi mumkin. Bunda u narxlarda farq bo'lgan taqdirda sotuvchi bilan zarur hisob-kitobni amalga oshiradi. Agarda sotuvchida almashtirish uchun zarur tovar bo'lmaganida sotib oluvchi xarid qilingan tovarni sotuvchiga qaytarib berish va unga to'langan pul summasini olish huquqiga ega.

1.6. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ularning har biri bir xil kuchga ega. 1.7. Shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31 dekabr.

2. Shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlari

2.1. Sotuvchining huquqlari:

- sotilgan tovar haqini to'lashni;
- tovarni o'z vaqtida qabul qilib olishni;
- shartnoma shartlariga to'liq rioya etishni;
- sotib oluvchi tomonidan o'ziga yetkazilgan zararlarning qoplanishini talab qilish.

2.2. Sotuvchining majburiyatlari:

- sotib oluvchi talab qilgan hollarda tovar to'g'risida unga zarur va to'g'ri axborotni qonun hujjatlarida belgilangan yoki chakana savdoda qo'yiladigan talablarga muvofiq holda berish;

- tovarni sotib oluvchiga mulk qilib topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan sifatdagi tovarni topshirish;
- uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirish;

- tovarni shartnomada ko'rsatilgan assortimentda topshirish;
- tovarni mansub ashyolari va tegishli hujjatlari bilan birga topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan but tovarni topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni sotib oluvchiga idishda yoki o'ralgan holda topshirish;

- tovarni sotib oluvchiga topshirgunga qadar saqlash.

2.3. Sotib oluvchining huquqlari:

- tovar to'g'risida zarur va to'g'ri axborotni qonun hujjatlarida belgilangan yoki chakana savdoda qo'yiladigan talablarga muvofiq holda berishni;

- shartnoma tuzilgunga qadar tovarni ko'zdan kechirish, o'z oldida tovarning xossalarini tekshirishni yoki tovardan qanday foydalanishni ko'rsatishni;

- sotib olayotgan tovarni o'ziga mulk qilib topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan sifatdagi tovarni topshirishni;
- uchinchi shaxslarning huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirishni;
- tovarni shartnomada ko'rsatilgan assortimentda topshirishni;
- tovarni mansub ashyolari va tegishli hujjatlari bilan birga topshirishni talab qilish.

2.4. Sotib oluvchining majburiyatlari:

- sotib olgan tovar haqini o'z vaqtida to'lash;
- tovarni o'z vaqtida qabul qilib olish;
- shartnoma shartlariga to'liq rioya etish;
- sotuvchiga yetkazilgan zararni qoplash;
- sotuvchi tomonidan tovarni saqlash uchun qilingan zarur harajatlarni to'lash.

Sotib oluvchi shartnomaning tovarlar miqdori, assortimenti, sifati, butligi, idishi va o'ralishi to'g'risidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o'n kun muddat ichida ma'lum qilishi shart.

3. Shartnoma bo'yicha javobgarlik

3.1. Agar sotib oluvchiga uning talabiga ko'ra sotish joyida darhol tovar to'g'risidagi axborotni olish imkoni berilmagan yoxud uning tovarni ko'zdan kechirish, tovarning xossalarini tekshirish yoki tovardan foydalanishni ko'rsatishni talab qilish huquqi ta'minlanmagan bo'lsa, u chakana oldi-sotdi shartnomasini tuzishdan asossiz bosh tortilgani tufayli o'zi ko'rgan zararni to'lashni sotuvchidan talab qilishga, agar shartnoma tuzilgan bo'lsa, oqilona muddatda shartnomani bajarishdan bosh tortishga, tovar uchun to'langan summani qaytarishni va zararni qoplashni talab qilishga haqli.

Sotib oluvchiga tovar to'g'risida tegishli axborot olish imkonini bermagan sotuvchi tovar sotib oluvchiga topshirilganidan so'ng tovarda paydo bo'lgan kamchiliklar uchun ham, agar sotib oluvchi bu kamchiliklar o'zida bunday axborot bo'lmagani sababli paydo bo'lganini isbotlasa, javobgar bo'ladi.

3.2. Agarda tovar sotib oluvchiga idishsiz va o'ramagan holda yoki tegishli idishga joylamagan va tegishli darajada o'ramagan holda topshirilgan taqdirda, sotib oluvchi sotuvchidan tovarni idishga joylashtirish va o'rashni yoxud tegishli bo'lmagan idish va o'rashni almashtirishni talab qilish yoki bu talablarni qo'yish o'rniga ushbu shartnomaning 3.3-bandi birinchi qismidagi talablarni qo'yishga haqli.

3.3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 434-moddasiga ko'ra sotib oluvchiga sifati tegishli darajada bo'lmagan tovar sotilganida, agar uning kamchiliklari shartnoma tuzish paytida ma'lum qilinmagan bo'lsa, sotib oluvchi o'z xohishiga ko'ra:

- xuddi shu markadagi (modeldagi, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo'lgan tovarga almashtirishni;

- xarid narxini tegishincha qayta hisoblagan holda boshqa markadagi (modeldagi, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo'lgan tovarga almashtirishni;

- tovarning kamchiliklarini tekinga bartaraf etishni yoki sotib oluvchi yoxud uchinchi shaxs tomonidan tovarning kamchiliklarini bartaraf etish uchun qilingan xarajatlar qoplanishini;

- xarid narxini mutanosib ravishda kamaytirishni;

- ko'rilgan zarar o'rnini qoplagan holda shartnoma bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Tovar uchun to'langan pul summasini sotib oluvchiga qaytarish vaqtda sotuvchi undan tovardan to'liq yoki qisman foydalanganligi, tovar ko'rinishi

yo'qolganligi yoki boshqa shunga o'xshash holatlar tufayli tovar qiymati qancha pasaygan bo'lsa, shuncha summani ushlab qolishga haqli emas.

3.4. Sotuvchi shartnoma bo'yicha majburiyatni bajarmagan taqdirda, zararni qoplash va neustoyka to'lash sotuvchini majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.

3.5. Agarda sotib oluvchi shartnomaning tovarlar miqdori, assortimenti, sifati, butligi, idishi va o'ralishi to'g'risidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o'n kun muddat ichida ma'lum qilmasa, sotuvchi shartlar buzilganligi natijasida kelib chiqadigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

4. Taraflarning korrupsiyaga qarshi shartlashuvi

Taraflar shartnoma shartlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun talablariga so'zsiz amal qiladi.

4.2. Taraflar, ularning vakillari va xodimlari o'z majburiyatlarini bajarish jarayonida ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan holda, ushbu shartnoma doirasida qonun buzilishga olib keladigan harakatlar(harakatsizlik)ga yo'l qo'ymaydilar.

4.3. Taraflar O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etish barobarida quyidagilarga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oladilar: - pora berish, shuningdek ushbu jinoyatga vositachilik qilish;

- tovlamachilik, yoki boshqa noqonuniy yo'llar bilan pora olishga undash;

- - pora olishga bevosita yoki bilvosita rozilik berish.

4.4. Taraflar, ularning vakillari va xodimlari rag'batlantirishning har qanday shaklini rad etadilar. jumladan:

- taraflarning xodimlari yoki vakillaridan pul mablag'lari olish, sovg'alar berish, ularga bepul xizmatlar ko'rsatish yoki ishlarni bajarishni ushbu harakat(harakatsizlik)ni amalga oshirgan xodim yoki vakolatli vakil uni rag'batlantiradigan tomon foydasiga har qanday harakatni bajarishni.

4.5 Taraflarga shartnoma shartlarini amalga oshirishda sun'iy ravishda ikkinchi tarafga noqulayliklar tug'dirib, korrupsiyaviy omil paydo bo'lishiga bevosita hamda bilvosita sababchi bo'lish taqiqlanadi.

4.6. Agar shartnoma taraflari tomonidan shartnoma shartlariga rioya qilmaslik yoki ushbu shartlarning buzilish holatlari sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb gumon qilinganda shuningdek, shartnomaning 4.1-bandida belgilangan qoidalardan biri sodir etilganda ushbu harakat sodir yetilganligi yuzasidan ikkinchi tomonni xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi hamda shartnoma shartlari yoki qonun buzilishining inkor etilmaydigan dalillari mavjud bo'lganda, shartnoma taraflari O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatli davlat organlariga murojaat qiladilar.

5. Fors-major holatlar

4.1. Sotuvchi fors-major holatlar (majburiyatlarni lozim darajada bajarish uchun to'sqinlik qiluvchi yengib bo'lmaydigan kuch ta'siri: elektr o'chishi natijasida yuzaga keladigan kuyish, tovar yetkazilayotgan paytda sodir bo'lgan tasodifiy

shikastlanish, yong'in chiqishi, suv tegishi natijasida buzilishi va boshqa holatlar) natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

6. Nizolarni hal qilish tartibi

Agar shartnomaning taraflari o'rtasida nizo kelib chiqadigan bo'lsa belgilangan tartibda iqtisdiy sudlarda ko'rib chiqiladi.

7.

7.Shartnomani bekor qilish

7.1. Shartnoma qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, uni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuv ham shunday shaklda tuziladi, basharti qonunchilikdan, shartnoma yoki ish muomalasi odatlaridan boshqacha tartib kelib chiqmasa.

7.2. Bir taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdin rad javobi olganidan keyingina yoki taklifda ko'rsatilgan yoxud qonunda yoinki shartnomada belgilangan muddatda, bunday muddat bo'lmaganida esa – o'ttiz kunlik muddatda javob olmaganidan keyin, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

8. Taraflarning rekvizitlari

Sotuvchi
"Xorazm-Mebel-Invest" MCHJ
20208000805183192001
Hisob-kitob raqami

"Agrobank" bankning

bo'limida, bank kodi: 00558

STIR 307158422

telefon +99 899 081 84 47

Xudoyberganov Ro'zmatjon

Allayorovich
(vakolatli shaxs F.I.Sh. va imzosi)

Sotib oluvchi
18-som Maktabgacha ta'lim tashkiloti
23402000300100001010
Hisob-kitob raqami


"Markaziy bank" Toshkent sh
bankning

bo'limida, bank kodi 00014

STIR 305174254

telefon +99 893 929 10 06

Abdirasulova Xinjixon Otaboy qizi
(vakolatli shaxs F.I.Sh. va imzosi)



Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.
Elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang.

Imzolovchi F.I.SH. X.Abdirasulova

Imzolangan sana	23.12.2022 14:38
Hujjat kodi	FI5281511405
Hulosa kodi	XL4338303422

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

XL4338303422

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Oldi-sotdi shartnomasi**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Hazorasp tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 23.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Hazorasp tuman
yuridik xizmat
ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti:**



S.S.MATNAZAROVA

23.12.2022

**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 208471 на приобретение Хазорасп тумани
МТБга карашли 18-сон МТМ биносига веб камера харид килиш**

Способ проведения электронный

Дата 15.12.2022

Время рассмотрения 07.12.2022 14:56

Конкурсная комиссия Хазорасп туман мактабгача таълим булими марказлашган бухгалтерия, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	ABDIRASULOVA XINJIXON OTABOY QIZI	Булим мудир	Хазорасп тумани мактабгача талими булими
Секретарь комиссии	JUMANIYOZOVA RAXIMA TO'XTAYEVNA	Tovar moddiy qiymatliklar bo'yicha hisobchi	хазорасп туман мактабгача талими булими
Член комиссии	ABDULLAYEV BEKZOD MADIYOROVICH	Коммунал хизматлар буйича инспектор	хазорасп туман мактабгача талими булими
Член комиссии	ATABOYEV MUXAMMAD XAMZA O'G'LI	Мурожаатлар мутахассиси	Хазорасп тумани МТБ
Член комиссии	YAXSHIMURATOV KAMOL SHONAZAROVICH	Акт мутахассиси	Хазорасп тумани МТБ
Член комиссии	YAKUBOV SHOXRUX OTAXONOVICH	Хизмат бошлиғи	Хазорасп тумани МТБ

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 15.12.2022 года № лота 208471.

Метод оценки предложений – Бальный метод

Мин. балл: 50

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Веб камера
Подробное описание	шартнома шартлари асосида
Количество товара	10.00
Единица измерения	шт
Цена товара (услуги) за единицу	1 000 000.00
Стартовая сумма	10 000 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Солиқдан қарзи йук маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Солиқдан қарзи йук маълумотнома

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
Xorazm-Mebel-Invest MCHJ	25	маълумот тўлиқ юкланди.	25	Экспертная		
MEXRIBON ADOLAT MCHJ	25	25	20	Экспертная		

Критерий №2 банкдан карзи йук K-2 маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: банкдан карзи йук K-2 маълумотнома

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
Xorazm-Mebel-Invest MCHJ	25	маълумот тўлиқ юкланди.	25	Экспертная		
MEXRIBON ADOLAT MCHJ	25	25	25	Экспертная		

Критерий №3 ходим сертификати

Тип: Текстовое значение

Описание: ходим сертификати

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
Xorazm-Mebel-Invest MCHJ	25	маълумот тўлиқ юкланди.	25	Экспертная		
MEXRIBON ADOLAT MCHJ	25	25	10	Экспертная		

Критерий №4 Оферант тугрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Оферант тугрисида маълумот

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
Xorazm-Mebel-Invest MCHJ	25	маълумот тўлиқ юкланди.	25	Экспертная		
MEXRIBON ADOLAT MCHJ	25	25	25	Экспертная		

Финансовое значение

Наименование товара: Веб камера

Ценовые предложения				Порядок оценки ценовых предложений	
Наименование участника	Стартовая сумма (UZS)	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Коэффициент, используемый для расчета предложений нерезидентов	Итоговое значение (UZS)
Xorazm-Mebel-Invest MCHJ	10 000 000.00	10 000 000.00 UZS	10 000 000.00	00.00	1 000 000.00
MEXRIBON ADOLAT MCHJ	10 000 000.00	10 000 000.00 UZS	10 000 000.00	00.00	1 000 000.00

Оценка участников финансовой части составила:

Стартовая сумма составляет 10 000 000.00 UZS

Наименование	Предлагаемая	Сумма с	Применение	Коэффициент,	Общее	Дата	Оценка
--------------	--------------	---------	------------	--------------	-------	------	--------

участника	сумма	учетом конвертации (UZS)	преференции	используемый для расчета предложений нерезидентов	значение (UZS)	предложения	стоимости (балл)
Xorazm-Mebel-Invest MCHJ	10 000 000.00 UZS	10 000 000.00	00.00	00.00	10 000 000.00	14.12.2022 18:56:34	0
MEXRIBON ADOLAT MCHJ	10 000 000.00 UZS	10 000 000.00	00.00	00.00	10 000 000.00	15.12.2022 14:42:08	0

Итоговая оценка участников включая финансовую часть составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
Xorazm-Mebel-Invest MCHJ	100	0	100
MEXRIBON ADOLAT MCHJ	80	0	80

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 208471 от 15.12.2022 года на приобретение Хазорасп тумани МТБга карашли 18-сон МТМ биносига веб камера харид кишиш определила победителем:

Xorazm-Mebel-Invest MCHJ
307158422

и резервный исполнитель: MEXRIBON ADOLAT MCHJ (306749914)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	ABDIRASULOVA XINJIXON OTABOY QIZI	Согласен	
Член комиссии	ATABOYEV MUXAMMAD XAMZA O'G'LI	Согласен	
Член комиссии	YAXSHIMURATOV KAMOL SHONAZAROVICH	Согласен	
Член комиссии	YAKUBOV SHOXRUX OTAXONOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП